



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019-yil yanvar

RAQAMLAR:

- 2019-yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 167,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarining o'sish sur'ati 203,3 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 203,7 ming. so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushining oshishiga olib keladi.

2019-yil yanvar oyida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 167,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (30,7 %) tashkil etadi.

2019-yilning yanvar oyida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %




Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozirgi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

2019-yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019-yil yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (203,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (133,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (123,0 %), kompyuterlarni tamirlash xizmatlari (107,2 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2019-yil yanvar oyida ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining ulushi, %



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (30,7 %), moliyaviy xizmatlar (22,4 %), transport xizmatlari (17,4 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,9 %) ni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha bozor xizmatlari**

	Hajmi mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % hisobida	Umumiy hajmga nisbatan % hisobida
Jami xizmatlar	167,6	115,9	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari do'yicha</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	11,5	89,3	6,9
moliyaviy xizmatlari	37,6	203,3	22,4
transport xizmatlari	29,2	101,0	17,4
<i>shu jumladan:</i>			
avtotransport xizmatlari	28,0	100,6	16,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	4,2	106,2	2,5
savdo xizmatlari	51,5	104,5	30,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	5,0	100,5	3,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	5,4	133,2	3,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,6	123,0	1,6
ijara xizmatlari	3,7	79,0	2,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni, ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	4,9	107,2	2,9
shaxsiy xizmatlar	4,4	103,7	2,7
me'morchilik muhandislik izlanishlar, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,9	102,4	1,1
boshqa xizmatlar	5,7	101,8	3,4


**2019-yil yanvar oyida tuman va shaharlar bo'yicha
bozor xizmatlari hajmi**

	Hajmi mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % hisobida	Umumiy hajmga nisbatan % hisobida
Sirdaryo viloyati	167,6	115,9	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	88,2	123,0	52,7
Shirin	2,2	112,8	1,3
Yangiyer	12,0	108,4	7,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	4,2	111,2	2,6
Boyovut	6,6	107,4	3,9
Sayxunobod	7,9	110,6	4,7
Guliston	6,2	112,9	3,7
Sardoba	4,7	99,4	2,8
Mirzaobod	7,8	112,0	4,6
Sirdaryo	21,1	107,5	12,6
Xovos	6,7	110,5	4,0

Hududlar o'rtasida Guliston shahri (88,2 mlrd. so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 123,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari (51,5 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (37,6 mlrd. so'm), transport xizmatlari (29,2 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,5 mlrd. so'm) ga oshganligi kuzatildi.

2019-yil yanvar oyida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, %




Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi shaxsiy xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ushbu xizmat turining hajmi 2018-yil yanvar oyiga nisbatan 0,3 mlrd. so'mga oshdi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talab jarayoni faol ishtirokchiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2019-yilning yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 51,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 30,7 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 73,3 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 21,0 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holdagi ulushi 5,7 % ni tashkil qiladi.